

O'ZBEKISTONDA UZLUKSIZ TA'LIMNI TASHKIL ETISH VA RIVOJLANTIRISH PRINSIPLARI

*Jo'rayeva Muxlisa To'yumurod qizi
Osiyo xalqaro universiteti 2-bosqich magistranti*

Annotatsiya: Ushbu maqolada O'zbekistonda uzluksiz ta'lif tizimini tashkil etishning huquqiy, ijtimoiy va pedagogik asoslari, shuningdek, uzluksiz ta'lifni rivojlantirish prinsiplari tahlil qilingan. Zamonaviy talablarga mos malakali kadrlarni tayyorlashda uzluksiz ta'lifning tutgan o'rni va ta'lif bosqichlari o'rtaсидаги узвијлиќ мухим ахамият касбетади.

Аннотация: В статье рассматриваются правовые, социальные и педагогические основы организации непрерывного образования в Узбекистане, а также принципы его развития. Особое внимание уделяется обеспечению преемственности между уровнями образования и подготовке квалифицированных кадров в соответствии с современными требованиями.

Abstract: This article analyzes the legal, social, and pedagogical foundations for organizing lifelong learning in Uzbekistan and the principles of its development. Special attention is paid to ensuring continuity between stages of education and training qualified personnel in line with modern demands.

Mustaqillik e'lon qilingan dastlabki yillardanoq O'zbekiston hukumati ta'limga ustivor soha sifatida e'tibor berib kelmoqda. O'zbekiston Respublikasining ta'lif sohasida aniq va ravshan hamda ilmiy asoslangan davlat siyosati mavjud bo'lib, u insonparvarlik va demokratik tamoyillarga asoslanadi hamda har bir fuqaroning bilim olishi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida qonuniylashtirilgan. Mustaqil Respublikamizda xalq ta'lifi tizimi mazmunini yangilash va yangi ijtimoiy muhit sharoitida uni yanada rivojlantirish zarur edi. Chunki huquqiy, iqtisodiy, ma'naviy sohalarda olib borilayotgan islohotlardan asosiy maqsad ham barcha fuqarolarning hayotini ijtimoiy himoyalash, ularning turmush sharoitini yaxshilash, ma'naviy jihatdan yuksaltirish, eng muhimi, ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot barpo etishdan iborat. Ana shu maqsadni amalga oshirish borasida Respublikamizda xalq ta'lifi tizimini tubdan isloh qilish va milliy kadrlarga bo'lgan ehtiyojni tobora ortib borayotganligini hisobga olib ta'lif tizimini yangilashni taqozo etar edi. Shu maqsadda 1997 yil 29 avgustda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 1X sessiyasida "Ta'lif to'g'risida" Qonun hamda "Kadrlarni tayyorlash milliy dasturi" keng muhokama qilindi va tasdiqlandi.

Mustaqillik yillarida O'zbekistonda xalqimiz o'zining yangi milliy qomusi asosida hamma sohadada bo'lganidek, o'zbek milliy fani va madaniyati va ta'lif –

tarbiya tizimiga ham zamon talablaridan kelib chiqqan holda yangicha yondoshish imkoniyatiga ega bo'ldi.

2020 yil 23 sentiyabrda yangi tahrirdagi “Ta’lim to‘g‘risidagi” qonun qabul qilindi.

Ushbu Qonunda quyidagi asosiy tushunchalar qo‘llaniladi:

davlat akkreditatsiyasi — davlat ta’lim muassasalari va tashkilotlari, shuningdek nodavlat ta’lim tashkilotlari (bundan buyon matnda ta’lim tashkilotlari deb yuritiladi) faoliyatining davlat ta’lim standartlari va davlat ta’lim talablariga hamda o‘quv dasturlariga muvofiqligining davlat tomonidan e’tirof etilishi hamda ularning bitiruvchilariga ma’lumot to‘g‘risidagi hujjatlarni topshirish huquqining taqdim etilishidan iborat jarayon;

davlat ta’lim muassasasi — davlat hokimiysi va boshqaruvi organlari tomonidan davlat mulki bo‘lgan mol-mulk negizida tashkil etilgan, davlat ta’lim standartlariga va davlat ta’lim talablariga muvofiq ta’lim beradigan muassasa;

davlat ta’lim standartlari — davlat tomonidan ta’limning mazmuni va sifatiga nisbatan belgilanadigan talablar majmui;

davlat ta’lim talablari — ta’limning tuzilmasiga, mazmuniga va uni amalga oshirish shart-sharoitlariga, shuningdek ta’lim oluvchilarning jismoniy, shaxsiy, intellektual, ilmiy hamda kasbiy sifatlariga qo‘yiladigan majburiy talablar;

Ta’lim - tarbiya tizimlaridagi umumiylilik va o‘ziga xoslikni, pedagogik nazariya va amaliyotning o‘xhash va farqli tomonlarni, qonuniyatlar va tendenstiyalarning unversal va spestifik jihatlarini ajratish ilg’or pedagogik texnologiyalarni joriy etishning shartlaridan biridir.

Adabiyotlar, arxiv manbalari, pedagogik bosma materiallarning nazariy, qiyosiy-taqqoslovchi va qiyosiy-tarixiy tahlili yetarli darajadagi faktik materiallarni qo‘llash lozimligini nazarda tutadi. O‘rganuvchilar uchun manbalarni tahlil qilish tadqiqot va izlanishlar uchun muhim asoslardan sanaladi. Shunday manbalar sirasiga eng avvalo o’tmish va hozirgi zamon pedagoglarning asarlari, me’yoriy-huquqiy hujjatlar, olimlarning tadqiqotlari, arxiv materiallari, statistik ma’lumotlar, o‘quv reja va dasturlari kiradi.

Yuqorida sanab o’tilgan istalgan bir usulni qo‘llash orqali qiyoslashga asoslangan pedagogikaning bosh metodologik masalasi – qaysi vositalar va qanday shakllarda zamonaviy xorij tajribasini mamlakatimiz ta’lim tizimida qo‘llash samarali natija berishi mumkinligi aniqlab beriladi. Dunyo pedagogika taraqqiyoti tarixining tahliliga metodologik yondoshuvlar kompleksini hisobga olgan holda biz uning besh taraqqiyot bosqichini ajratamiz: ilmiydan oldingi bosqich, paydo bo’lish bosqichi, rivojlanish bosqichi, inqiroz bosqichi, integrasiya bosqichi.

- 1- bosqich (ilmiydan oldingi) – qadimgi davrlardan XIX asrgacha.
- 2- bosqich (paydo bo’lish) – XIX asr oxiridan XX asr boshlarigacha.

3- bosqich (rivojlanish) – XX asr boshlaridan XX asrning 60-yillarigacha.

4- bosqich (inqiroz) – XX asrning 60-yillaridan 80-yillarigacha.

5- bosqich (integrastiya) – o'tgan asrning 80-yillaridan hizirgacha o'lgan davr.

Ushbu bosqichlar milliy pedagogik an'analar va asoslarni anglashga, uning dunyo texnologik jarayonlari integrastiyasiga tortilish jihatlarini tarmoqlashga imkon beradi.

Shu bilan birga xorij tajribalarini o'rganish va uni amalda qo'llash ham bizda asrlar davomida turli ko'rinishlar hamda shakllar sifatida amalga oshirilib kelingan. Bu jarayon ko'pqirrali, dinamik rivojlanish bo'lib, uni o'rganish ham bir necha yo'nalishlardagi ko'pqirrali izlanishlarni taqozo etadi.

Unda birlamchi asosiy jihat bu masalaning yurtboshimiz asarlarida yoritilishi darajasidir. Ushbu jarayonning o'ziga xos jihatlari yurtboshimizning ko'pgina asarlarida chuqur va keng ko'lamda o'z aksini topgan.

Mamlakatning o'ziga xos mentalitetini hisobga olgan holda O'zbekiston tanlab olgan o'z rivojlanish modeli, shunga olib keldiki, ijtimoiy-siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va ma'naviy hayotning taraqqiy etgan mamlakatlarda umume'tirof etgan tamoyillari hamda me'yordi hukmron va muqarrar xususiyat kasb etib, ular respublikaning nafaqat hozirgi holatini, balki uning taraqqiyotini belgilaydi.

Insonni har tomonlama tarbiyalash insoniyatning azaliy orzusi bo'lib, ajdodlarimiz ma'rifat va madaniyatni qanday qilib yosh avlodlarga o'rgatish, ularni komillikka etaklash yo'llari, qonun-qoidalarini izlaganlar.

Uzlusiz ta'limning faoliyat ko'rsatish prinsiplari quyidagilardan iborat:

- ta'limning ustuvorligi uning rivojlanishining birinchi darajali ahamiyatga ega ekanligi, bilim, ta'lim va yuksak intellektning nufuzi;

- ta'limning demokratlashuvi ta'lim va tarbiya uslublarini tanlashda o'quv yurtlari mustaqilligining kengayishi, ta'limni boshqarishning davlat-jamiyat tizimiga o'tilishi;

- ta'limning insonparvarlashuvi inson qobiliyatlarining ochilishi va uning ta'limga nisbatan bo'lgan turli-tuman ehtiyojlarining qondirilishi, milliy va umumbashariy qadriyatlar ustuvorligining ta'minlanishi, inson, jamiyat va atrof-muhit o'zaro munosabatlarining uyg'unlashuvi;

- ta'limning ijtimoiyashuvi ta'lim oluvchilarda estetik boy dunyoqarashni hosil qilish, ularda yuksak ma'naviyat, madaniyat va ijodiy fikrlashni shakllantirish;

- ta'limning milliy yo'naltirilganligi ta'limning milliy tarix, xalq an'analarini va urf-odatlari bilan uzviy uyg'unligi, O'zbekiston xalqlarining madaniyatini saqlab qolish va boyitish, ta'limni milliy taraqqiyotning o'ta muhim omili sifatida e'tirof etish, boshqa xalqlarning tarixi va madaniyatini hurmatlash.

Ayni paytda, kasb-hunar ta'lidan foydalanish imkoniyatlari quyidagi omillar bilan cheklanmoqda:

Professional ta'lim

Professional ta'lism egallanadigan kasb va mutaxassislik bo'yicha quyidagi darajalarni o'z ichiga oladi:

- boshlang'ich professional ta'lim;
- o'rta professional ta'lim;
- o'rta maxsus professional ta'lim.

Boshlang'ich professional ta'lim kasb-hunar maktablarida IX sinf bitiruvchilari negizida bepul asosda kunduzgi ta'lim shakli bo'yicha umumta'lim fanlarining va mutaxassislik fanlarining ikki yillik integratsiyalashgan dasturlari asosida amalga oshiriladi.

O'rta professional ta'lim kollejlarda davlat buyurtmasi yoki to'lov-shartnoma asosida kasblar hamda mutaxassisliklarning murakkabligidan kelib chiqqan holda, davomiyligi ikki yilgacha bo'lgan kunduzgi, kechki va sirtqi ta'lim shakllari bo'yicha umumiyo'rta, o'rta maxsus ta'lim hamda boshlang'ich professional ta'lim negizida amalga oshiriladi.

O'rta maxsus professional ta'lim texnikumlarda umumiyo'rta, o'rta maxsus, boshlang'ich professional va o'rta professional ta'lim negizida davlat buyurtmasi yoki to'lov-shartnoma asosida kasblar hamda mutaxassisliklarning murakkabligidan kelib chiqqan holda, davomiyligi kamida ikki yil bo'lgan kunduzgi, kechki va sirtqi ta'lim shakllari bo'yicha amalga oshiriladi.

Ushbu Qonun kuchga kirguniga qadar o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi (to'qqiz yillik umumiyo'rta va uch yillik o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi) olgan fuqarolar ham o'rta professional va o'rta maxsus professional ta'lim olish huquqiga ega.

Kasb-hunar maktablari, kollejlar va texnikumlar ta'lim oluvchilarning o'zi tanlagan kasbga va mutaxassislikka ega bo'lishini ta'minlaydi.

Fuqarolar shartnoma asosida ikkinchi va undan keyingi professional ta'limi olish huquqiga ega.

To'rtinchidan, imkoniyati cheklangan shaxslarning o'rta maxsus, kasb-hunar ta'lidan foydalanish muammosi hozircha hal etilgani yo'q. Bunday bolalarni inklyuziv o'qitadigan o'rta maxsus, kasb-hunar o'quv yurtlari, tegishli dasturlar, darsliklar va uslubiy qo'llanmalar ham hozircha yo'q.

Umumiyo'rta va oliy ta'lim izchilligini ta'minlaydigan o'quvchilarning bilim darajasini baholashning reyting tizimi ishlab chiqilib, joriy etildi.

Kasb-hunar ta'limi va ishlab chiqarishni birlashtirish quyidagi yo'llar bilan ta'minlanadi:

- umumiyo'rta va kasb-hunar kollejlarida qo'shma ishlab chiqarishlarni va ishlab chiqarishda bo'limlarini tashkil etish;

- kadrlar tayyorlashning ikki yoqlama tizimini rivojlantirish;
- o'qitishni korxonalarda haq to'lanadigan mehnat bilan birlashtirish asosida malakali kadrlar tayyorlash va tarbiyalash;
- pedagog kadrlarning bevosita ishlab chiqarishda ilg'or texnologiyalar sohasida malakasini tizimli oshirish;
- o'quvchilarni ishlab chiqarish amaliyotini o'tash uchun ish o'rnlari bilan ta'minlash;
- ta'lim muassasalarini zamonaviy uskunalar, apparatura va vositalar bilan jihozlash;
- korxonalarning ta'lim muassasalarini moliyalashda ta'sischi, vasiy, homiy sifatida ishtirok etishi;
- akademik litseylar o'quvchilariga oliy o'quv yurtlari va ilmiy-tadqiqot tashkiloti o'quv-moddiy bazasidan foydalanish, kasb-hunar texnikumlari o'quvchilariga esa homiy va oliy o'quv yurti yordamidan foydalanish imkonini berish;
- o'quvchilarni ijtimoiy faoliyat va mahsulot ishlab chiqarish jarayoniga faol jalb qilish uchun sharoit yaratish.

Xulosa

Uzluksiz ta'lim tizimi mamlakatda intellektual salohiyatni oshirish, raqobatbardosh kadrlar tayyorlash va inson kapitalini rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi. Unga asoslangan holda quyidagi takliflar ilgari suriladi:

Har bir ta'lim bosqichi o'rtasida uzviylikni kuchaytirish.

O'qituvchilarning malakasini oshirish orqali sifatli uzluksiz ta'limni ta'minlash.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Mirziyoyev SH.M. Erkin va farovon demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. -T.: O'zbekiston, 2016, 14-bet.
2. Sh. Shodmonova., Ergashev P. Qiyosiy pedagogika. – T.: TDPU, 2005.
3. Ivanova A. O'zbekiston -Germaniya ta'lim sohasidagi hamkorlik. Xalq so'zi. 2002 yil 13 mart.
4. Usmonov N. Germaniyada kasb-hunar ta'limi. Xorijda ta'lim. Ma'r. 2002 yil 13 fevral.
5. Salimova N. Buyuk Britaniya, Finlyandiya: Xorijda ta'lim. Ma'rifat. 2001, 25 mart.